

ONA TILI TA'LIM TIZIMIDA SINONIMLARNI O'QITISH

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi*

Jumaboyeva Sevinch

Annotatsiya: Maqolada O'quvchilarning nutq boyligini oshirishda sinonim so'zlarning o'rni, ulardan foydalanish va ona tili ta'lim tizimida sinonimlarning o'qitilishi metodlar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: sinonim, darajalanish, bo'yoqdorlik, uslubiy xoslik, davriy xoslik.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimiga nazar solar ekanmiz darsda tahsil olayotgan o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish dars berayotgan o'qituvchining yelkasida turgan muhim vazifalardan biridir. O'quvchining lug'at boyligining oshishi uning nutqini boy bo'lishiga, har qanday sharoit, holatda ham o'z fikrlarini erkin bayon qila olishiga imkon beradi. O'quvchilarning lug'at boyligining oshishi ko'p kitob o'qish bilan birgalikda tilimizdagi sinonim (ma'nodosh) so'zlardan foydalana olishligi bilan ham belgilanadi. Ma'lumki, ma'nodosh so'zlar bir-birining o'rnida qo'llana oladi. Biroq ularning bo'yoqdorlik xususiyati, uslubiy xoslanganligi kabi sifatlari bunga biroz chek qo'yadi. Faqat so'zning dominatidan foydalanish ham o'quvchining fikriy rivojiga to'siq bo'ladi. O'quvchi o'z nutqida sinonimlardan qay darajadadir foydalana olishligi uning nutqini boyligini, so'zga usta ekanligini yuzaga chiqaradi.

So'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish har qanday nutqning aniq va ta'sirli bo'lishini ta'minlaydi. Bunda so'zning leksik ma'nosi bilan bir qatorda uning uslubiy bo'yog'ini ham yaxshi bilish zarur. So'zning u yoki bu uslubga xoslanganligi va so'zdagi salbiy yoki ijobiy munosabat ifodasini bilmasdan turib, uni to'g'ri va maqsadga muvofiq holatda qo'llab bo'lmaydi. Qaysi uslub

bo'lishidan qat'i nazar, nutq tuzuvchi buni inobatga olishi lozim. Uslubning raso bo'lishida til birliklari orasidan eng muvofiq'ini tanlash hal qiluvchi ahamiyatga molik. Chunki tilda o'zaro ma'nodoshlik, shakldoshlik va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan birliklar talaygina bo'lib, ular tilning o'ziga xos boyligi, ranginligini yuzaga keltiradi.

Sinonimlarning ma'nosi yaqin bo'lsa-da, ammo bir xil emas. Ular turli jihatlariga ko'ra farqlanadi:

1. Kambag'al – yo'qsil; bo'sh – latta. (*bo'yoqning kuchli-kuchsizligiga ko'ra*)
2. Jilmaymoq – tirjaymoq. (*bo'yoqning ijobiy-salbiyligiga ko'ra*)
3. Ruxsat – izn; bermoq – taqdim qilmoq. (*uslubiy xoslanishiga ko'ra*)
4. Osmon – gardun; dushman – yog'iy. (*davriy xoslanishiga ko'ra*)

Bundan tashqari, sinonimlar nutqda qanday ma'noda kela olishi, qaysi so'zlar bilan birika olishiga ko'ra ham farqlanadi. Osmon so'ziga samo, ko'k so'zlari ma'nodosh, biroq *Bozorda narxlar osmon ekan* jumlasida samo va ko'k so'zlarini qo'llab bo'lmaydi. Bu jumlada osmon so'zining ma'nodoshlari baland, qimmat hisoblanadi. *Buncha osmon bo'lmasa bu bola* gapida osmon – mag'rur sinonimligini ko'rishimiz mumkin. Bulardan xulosa qilishimiz mumkinki,

- 1) bir so'z turli ma'nolari bilan har xil so'zlarga sinonim bo'lishi mumkin;
- 2) so'zning sinonimi nutqda (jumla, matn ichida) oydinlashadi;
- 3) bir so'z ko'chma ma'noda boshqa turkumdagi so'zga sinonim bo'lishi mumkin.

Yosh avlod nutqining boy bo'lishligi ma'lum bir jihatdan sinonim so'zlarga ham bog'liq ekan bu jarayonda fan o'qituvchilari bir qancha metodlardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkillashtirishlari mumkin. Bu albatta, o'qituvchining pedagogik mahoratiga borib taqaladi. Aslida, o'quvchiga leksikologiya bo'yicha bilimlar faqat bir sinf doirasidagina emas, balki barcha sinflar kesimida bosqichma-bosqich o'rgatilib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bu jarayonda o'qituvchi o'zlashtirgan bilimlarni takrorlashi emas, balki o'quvchilarga ushbu mavzular bo'yicha yangi bilimlar bera olishi, o'quvchi leksikonini boyitishning yangi samarali yo'llarini izlab topishi zarur.

Sir emaski, leksikani o'qitish ona tili fanida bir muncha murakkab jarayon. Chunki so'zlarning o'zaro munosabati, bir – biridan farqlanishi, uslubiy xoslanganligi shu kabi o'ziga xosliklar o'quvchi o'zlashtirishi uchun ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi tabiiy. Aynan shu sababli ham bugungi kunda leksikologiyani o'rgatish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jumladan, sinonim so'zlarni o'rgatishda bu kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Sinonim so'zlarni o'rgatish masalasi bo'yicha tajriba-sinov darslari olib borilganda ham bu kabi muammolar borligi sezildi.

Tajriba-sinov darsi 5- sinflar kesimida tashkil etilgan bo'lib, dastlab o'quvchilardan darsdan oldin mavzu yuzasi bo'yicha test topshirig'i olindi. Natijada, mavzuni o'zlashtira olgan o'quvchilar 25% ni, o'zlashtira olmagan o'quvchilar esa 65% ni tashkil etdi. Natijaning past bo'lishiga asosiy sabablar qilib dars jarayonida sinonim so'zlar mavzusi to'la yoritib berilmaganligi, o'quvchilarning ushbu so'zlarni qachon va qayerda qo'llash ko'nikmasi shakllanmaganligi, dars jarayoni yangi bilim berishga emas, balki xotirlashga qaratilganligini sanab o'tishimiz mumkin. Bu muammoni hal qilish maqsadida quyidagi dars jarayoni olib borildi.

Dastlab sinonim so'zlar haqida, ularning qo'llanilishi, xususiyatlari, darajalanish bosqichlari kabi nazariy ma'lumotlar ekran orqali tasvirlar orqali namoyish qilindi. O'quvchilarning tushunmay qolgan ayrim joylariga o'qituvchi tomonidan izohlar berib o'tildi.



1-rasm: Sinonim so'zlarning darajalanishi.

So'ngra quyidagi topshiriqlar bajarildi.

1. O'quvchilar to'rt guruhga bo'lingach har bir guruh uchun ma'lum bir sinonimik qatordagi so'zlar beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlardan foydalanib gap tuzishi kerak bo'ladi. Tuzgan gaplarida ishtirok etgan sinonim so'zlar o'rniga boshqa bir ma'nodosh so'zni qo'llab o'qib ko'radilar. Bu jarayonda o'quvchilar o'zlari ma'nodosh so'zlarning ba'zilar boshqasining o'rnida qo'llanib bo'lmasligini bilib oladilar. *Masalan, Yuraksiz insonlar jasur ishlarga qo'l ura olmaydi. (qalb, dil, ko'ngil).* Ushbu topshiriq o'quvchining lug'at boyligini oshirish bilan birga uning og'zaki nutqini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

2. "Sehrli oyna" metodi bu metod o'quvchilarning kommunaktivlik layoqatini shakllantirishga, tafakkurni o'stirishga, o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu metodda o'qituvchi qog'ozga ma'lum bir so'zni yozib birinchi o'quvchiga beradi. Qog'ozni olgan o'quvchi undagi so'zni qarshisidagi o'quvchiga o'qib beradi. O'quvchi so'zning ma'nodoshini topib gap tuzishi kerak bo'ladi. Topshiriq shu shaklda davom etadi.

3. "Do'stingni top" metodi. O'qituvchi qog'ozlarga so'zlar yozib o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilar so'zlarni o'qib o'z sherigini topishi kerak bo'ladi. So'ngra har bir o'quvchi o'ziga tushgan so'z yordamida gap tuzadilar. Bu metodning murakkabligi shundaki, o'z sherigini topgan o'quvchilar tuzgan gaplari bir-birini to'ldirib kichik matn shakllanishi talab etiladi.

Dars so'ngida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari test yordamida tekshirildi.

Tajriba-sinov darsidan olingan natija shu bo'ldiki, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi 73% ga oshdi.

Tajriba-sinov dars o'tkazilgan sinflar	Darsda qatnashgan o'quvchilar	Mavzuni o'zlashtirgan o'quvchilar	Mavzuni o'zlashtirolmagan o'quvchilar
--	-------------------------------	-----------------------------------	---------------------------------------

5-“A”	30	22/73%	8/27%
5- “B”	32	24/ 73%	9/27%

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ona tili 10 [Matn]: 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b.
2. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 424 b.